

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ZIYODULLAYEV AKMAL RAUPOVICH

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA EPONIMLARNING LINGVOKOGNITIV
HAMDA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

UDK: [811.512.133:811.111]'373.21/.23.001.36

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Ziyodullayev Akmal Raupovich

Ingliz va o'zbek tilida eponimlarning lingvokognitiv hamda lingvokulturologik xususiyatlari3

Ziyodullaev Akmal Raupovich

Linguocognitive and linguocultural peculiarities of eponyms in the English and Uzbek languages23

Зиядуллаев Акмал Раупович

Лингвокогнитивные и лингвокультурологические особенности эпонимов в английском и узбекском языках.....43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ZIYODULLAYEV AKMAL RAUPOVICH

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA EPONIMLARNING LINGVOKOGNITIV
HAMDA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.3.PhD/Fil2757 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: O'rayeva Darmon Saidaxmedovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Axmedov Oybek Saporbayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Kilichev Bayramali Ergashovich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «07» sentabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (423 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «09» avgust kuni tarqatildi.

(2024-yil «09» avgust dagi 24-18 - raqamli reestr bayonnomasi.)



M.Q.Baqoyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida soha sifatida shakllanib ulgurgan onomatologiya yo'nalishidagi ilmiy izlanishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Mazkur jarayonda onimlarning salmoqli ulushi hisoblangan, eponimlar alohida o'rin tutadi. Eponimlarning lingvistik mohiyati, semantikasi, tuzilishi, ular bilan bog'liq eponimizatsiya hodisasi, so'z yasalishi, tarixiy-madaniy, gender, sotsiolingvistik, lingvostilistik, lingvokognitiv va boshqa jihatlar, eponim birliklarning tildagi o'rni, kelib chiqish omillari, oddiy va badiiy nutqda qo'llanish xususiyatlarini aniqlash til tarixini va tilning ijtimoiy ahamiyatini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida har bir tilning leksik boyligini, undagi onomastik birliklarni lingvokognitiv hamda lingvokulturologik jihatdan o'rganish, eponimik birliklar, termin-eponimlarining o'ziga xos xususiyatlari, ingliz lingvomadaniyatida xususiy nomlarning termin sifatida qo'llanishi, ayniqsa, eponimlarni lingvistik birlik sifatida turli tizimli tillar doirasida qiyosiy o'rganishga bag'ishlanayotgan tadqiqotlar salmog'i ortmoqda. Shular qatorida ingliz va o'zbek tillaridagi eponimlarning til va nutqdagi o'rnini, leksik-semantik, grammatik, milliy-madaniy, stilistik, denotativ va konnotativ xususiyatlarini aniqlash, qo'llanish sohasiga ko'ra tasniflash, ularni tarjimada berish, tarjima lug'atlarini yaratish muammolari, eponimlarning boshqa onomastik birliklar orasida tutgan o'rni, ijtimoiy sohalarga aloqadorligiga qarab turlanishini ochish chog'ishtirma onomastikaning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda kuchli ma'naviyatga erishish uchun "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"ligi¹ni ko'rsatadi. Shu sababli tilshunoslik ilmi sohasida ham nazariy tadqiqotlarni jahon andozalari darajasida yuksaltirishdek ustuvor vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Bu borada tildagi eponimlarning shakllanish asoslarini, lingvokognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlariga ko'ra tasnifini, badiiy matnda qo'llanishi bilan bog'liq lingvopoetik belgilarini chog'ishtirma usulda aniqlash har bir tilda eponimlar yaxlit tizim sifatida mavjudligini va o'zi mansub bo'lgan xalqning milliy-madaniy til xususiyatlari, dunyoqarashi va ruhiyati, e'tiqodiy qarashlari, an'analari bilan bog'liq holda shakllanganini va qo'llanishini asoslash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий мажлисга murojaatnomasi // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь. – № 258 (6952).

bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida R.Traxeyr, M.Friman, T.Tuleja, R.Boykot, P.Guden, J.Marsiano, B.Kappuzzo, B.Barankin, T.Hanter, J.Dyuke-Parra, J.Lliano-Idarraga, A.Raffner kabi xorijiy; E.V.Varnavskaya, M.M.Dzyuba, O.V.Kuznesova, V.M.Leychik, N.V.Novinskaya, D.S.Lotte, M.G.Blau, E.M.Kakzanova, O.A.Priymak kabi rus olimlarining tadqiqotlari eponimlarning dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi bilan e'tiborni tortadi. Ammo tilshunoslik ilmida eponimlar, eponimizatsiya muammolari to'liq o'rganilmagan va yetarli darajada hal qilinmagan.

Eponim termini bo'yicha dunyoning M.G.Blau, N.V.Podolskaya, O.S.Axmanova, G.Lalich, N.Bragina, S.Lubenski, K.Denham, A.Lobek, J.Taylor, V.N.Gubin, S.B.Korolev va R.P.Samusev, Ye.Kakzanova kabi bir qancha olimlari, tadqiqotchilari o'z ilmiy ishlarida nazariy qarashlari va xulosalarini yoritib berishgan. Jumladan, Ye. M. Kakzanovanning matematik va tibbiyot termin-eponimlarining lingvokognitiv hamda kulturologik o'ziga xosliklari, Ye.A.Zyuzinaning ixtisoslashgan aviatsion leksika tarkibidagi eponimik birliklar, V.V.Vaxrameyevaning ingliz tilidagi ilmiy va texnik eponim terminlar, I.L.Kucheshvaning ingliz lingvomadaniyatida xususiy nomlarning termin sifatida qo'llanishini o'rganishga bag'ishlangan doktorlik va nomzodlik tadqiqotlari² shular sirasidandir. Bundan tashqari, Avstraliya Milliy universitetining adabiyot, tillar va lingvistika maktabi, "Nyu York times" gazetasida eponimlar to'g'risida umumiy tushuncha va qarashlar berilgan.³

Amerikaning Janubiy Jorjiya universiteti professori Richard Nordkvist eponimlar haqida, Gordana Lalich esa (University of Novi Sad, Serbiya) ingliz eponimik leksemalarining morfologik jihati va ularning asosiy so'z bilan semantik aloqasini o'z maqolasida yoritgan.⁴

N.Bragina (A.S.Pushkin nomidagi Rossiya tilshunoslik instituti), S.Lubenskiy (University at Albany-State University of New York University at Albany. Albaniya) eponimlarni madaniy kalit so'zlar sifatida qarab, ularning ingliz va rus tillaridagi leksikografik tavsifi haqida maqola e'lon qilishgan. Ingliz va rus tili

² Какзанова Е.М. Лингвокогнитивные и культурологические особенности научного дискурса: на материале математических и медицинских терминов-эпонимов: Дисс... доктора филологических наук. – М., 2011; Зюзина Е.А. Эпонимические единицы в составе специальной авиационной лексики: Дисс. кандидат филол. наук. – М., 2006; Вахрамеева В.В. Эпонимные термины в английских подъязыках науки и техники: Дисс. ..кандидат филол. наук. – М., 2012; Кучешева И.Л. Имена собственные как термины в подъязыке английской лингвокультуры: Дисс... кандидат филол. наук. – Омск, 2012.

³ <https://literaryterms.net/eponym/>

⁴ <https://www.translatemedia.com/translation-blog/eponyms-in-the-english-language/>

eponimlarining madaniy va leksikografik aspektlari tasvirini yoritib berishgan.⁵ K.Denham, A.Lobecklarning “Linguistics for Everyone: An Introduction” kitobi tarkibidagi “Morfologik tipologiya va so‘z yasalishi” qismida eponimlar to‘g‘risida umumiy tushunchalar ilgari surilgan.⁶ J.Taylor (John Taylor)ning “Ten Lectures on Applied Cognitive Linguistics (Wout Jac. van Bekkum, Jan Houben, Ineke Sluiter, Kees Versteegh) “The Emergence of Semantics in Four Linguistic Traditions: Hebrew, Sanskrit, Greek, Arabic” kitobida to‘rt grammatik an‘analarning sanskrit, ibroniy, yunon, arab tillarida semantikaning lingvistik nazariyadagi rolini qiyosiy tahlil qilish maqsad qilingani holda eponimlar xususida ham to‘xtalib, ularga umumiy tavsif berib o‘tilgan.⁷

“Eponim” termini o‘zbek tilida ham qo‘llana boshlandi. Masalan, o‘zbek folklorshunosligida M.Jo‘rayevning “Folklorshunoslik asoslari” kitobida, M.Rizoyevaning “O‘zbek xalq mifologik afsonalari (o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi va obrazlar tizimi” mavzusidagi dissertatsiyasida eponimlar epik asarlarning qahramonlari nomi deb ko‘rsatilgan.⁸ Tilshunoslikda S.Qorayevning “Topinimika” o‘quv qo‘llanmasi I bobining “Detoponimizatsiya” bo‘limida toponimik asosli eponimlar tasnifi xususida fikr yuritilgan.⁹ Til nazariyasi yo‘nalishida X.Maxsudovanning “Tilning onomastik qatlami genezisi va lingvokulturologik jihatlari” mavzusidagi ilmiy taqiqotining “Tilning onomastika tizimini tasniflash mezonlari” bo‘limida eponimlarning onomastik tasnifi¹⁰ xususida izlanishlar olib borilgan.

Ko‘rinadiki, eponimlarning leksik-semantik mohiyati, til va nutqdagi o‘rni, morfologik, sintaktik (ya’ni grammatik) xususiyatlari, uslubiy imkoniyatlari ingliz va o‘zbek tillari qiyosi misolida hali yaxlit holda o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universiteti O‘zbek adabiyoti kafedrasining “Filologiyaning dolzarb muammolari” hamda Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasining “Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari: adabiy jarayon, qiyosiy adabiyotshunoslik, uslubshunoslik va tilshunoslik masalalari” mavzuidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liq ravishda amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tilida eponimlarning lingvokognitiv hamda lingvokulturologik xususiyatlarining mushtarak va o‘ziga xos jihatlari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

⁵ <https://www.dissercat.com/>; <https://slll.cass.anu.edu.au/centres/andc/eponyms>

⁶ Denham K., Lobeck A. Linguistics for Everyone: An Introduction. Cengage Learning, 2009. – P. 199.

⁷ Wout Jac. van Bekkum, Jan Houben, Ineke Sluiter, Kees Versteegh The Emergence of Semantics in Four Linguistic Traditions: Hebrew, Sanskrit, Greek, Arabic. John Benjamins Publishing, 1997. – P. 57.

⁸ Жўраев М. Фольклоршunoslik asoslari. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2009; Ризоева М.А. Ўзбек халқ мифологик афсоналари (ўзига хос хусусиятлари, таснифи ва образлар тизими: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Т., 2020.

⁹ Qorayev S.Toponimika: O‘quv qo‘llanma. – Т.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B. 99.

¹⁰ Maxsudova X. U. Tilning onomastik qatlami genezisi va lingvokulturologik jihatlari: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa доктори (PhD) diss. avtoreferati. – Andijon., 2023.

eponimlarni lingvokulturologik tahlil qilishning nazariy asoslarini, xorijiy hamda mahalliy mualliflarning ularni lingvomadaniy, etnolingvistik, lingvokognitiv jihatdan o'rganishga yondashuvlarini aniqlash;

eponimlarning lingvistik birlik sifatida shakllanish omillari, til va nutqdagi o'rni, tabiatan demonimlar bilan uyg'unligi, derivatsion, ontologik, motivatsion xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida dalillash;

lingvokognitiv va lingvomadaniy tabiati, ilm-fan, ijtimoiy sohalarga aloqadorligiga qarab eponimlarni tematik tasniflash, etimologik tavsifini taklif qilish, ingliz va o'zbek tili madaniyatida amal qilish, lingvokulturologiya pozitsiyasidan umumiy otlar, terminologiya, frazeologik birliklar sohasiga o'tish xususiyatlarini asoslash;

eponimlarning denotativ va konnotativ, gender qo'llanishi, geografik mazmuni, termin-eponim yoki termin-nom sifatida kelishi, onima turlaridan biri ekani, morfologik, sintaktik, semantik, uslubiy xususiyatlarda namoyon bo'lishini ko'rsatish;

eponimlar tarjimasini, badiiy asarlarda keltirilishi bilan bog'liq jihatlarni ochish hamda ingliz va o'zbek tili eponimlarining ikki tilli izohli tarjima lug'atini yaratish.

Tadqiqotning obyekti. Dissertatsiyani yozishda ingliz va o'zbek tillari madaniyatidagi eponimlar ishtirok qilgan ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, publitsistik, badiiy matnlar tanlandi. Inglizcha, o'zbekcha maxsus (politexnika, matematika, kimyo, tibbiyot, biologiya) lug'atlari, inglizcha-o'zbekcha leksikografik manbalarlardan eponimlar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tilida eponimlarning lingvokognitiv hamda lingvokulturologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida miqdoriy, qiyosiy etimologik, leksik-semantik, komponent, lingvistik-madaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

turli tizimli ingliz va o'zbek tillaridagi eponimlarning lingvokognitiv va lingvomadaniy tabiati, ularning fanlar, sohalar, ishlab chiqarilgan yoki kashf qilingan narsa-buyumlar nomlarini bildiruvchi so'zlar sifatida nutqda qo'llanish xususiyatlari til leksikasi va terminologiyani boyitishga xizmat qilishi aniqlangan;

eponimlar milliy va xalqaro turlarga bo'lingan holda murakkab onomastik til birligi sifatida orfografik, derivatsion, motivatsion, funksiyalilik, semantik, omonimik xususiyatlarga egaligi, subtillarda turli metaforik imkoniyatlari va modellari, gender xususiyati, antropotsentrik omillari asoslangan;

qiyoslanayotgan tillarda ot, sifat, fe'l tarkibli eponimlarning denotativ va konnotativ qo'llanishi, obrazlantirilishiga xos lingvopoetik, lingvostilistik qirralari, muayyan shaxs nomi bilan atalgan narsa yoki tushuncha ifodalamasligi kabi jihatlar mulkiy eponimlarning umumiy yoxud jenerik tovar belgisini namoyon etishida voqelanishi dalillangan;

eponimlar qo'llanishiga ko'ra tavsiflovchi, leksik kesishmali, qisqartma yoki akronim ko'rinishlarida uchrashi, madaniy aspektida determinatsiyalangan tipik xarakterga ega ma'lumotlarni namoyon etishi kabi xususiyatlariga ko'ra

internatsional, milliy, tarixiy-madaniy, madaniy-ijtimoiy eponimlarga bo‘linishi, turli tillar va madaniyatlarda o‘zaro farqlanishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tilidagi eponimlarining leksik-semantik, milliy, grammatik (morfologik va sintaktik), nominatsion-motivatsion, lingvostilistik hamda lingvopoetik xususiyatlari har ikkala xalqning yashash sharoiti, til va madaniyati, milliy dunyoqarashi, ruhiyati, e‘tiqodiy tushunchalari, o‘ziga xos urf-odat va marosimlari, poetik tafakkur tarzi bilan chambarchas bog‘liqligi isbotlangan;

ingliz va o‘zbek tilidagi eponimlar bo‘yicha to‘plangan materiallar, chiqarilgan umumlashma xulosalar, yaratilgan ikki tilli izohli tarjima lug‘ati hozirgi qiyosiy tilshunosligimiz uchun muhim ilmiy-nazariy ma‘lumotlar berishi, onomastika, lingvokulturologiya, o‘lkashunoslik, frazeologiya, terminologiya, mifologiya bo‘yicha yaratiladigan yangi darslik, qo‘llanma, lug‘atlarning mukammallashuviga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, dissertatsiyada qo‘llanilgan ilmiy-metodologik yondashuv va usullar, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy, publitsistik manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar miqdoriy, qiyosiy etimologik, leksik-semantik, komponent, lingvistik-madaniy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek eponimlarini tarixiy-etimologik, leksik-semantik, grammatik (morfologik va sintaktik), funksional-stilistik jihatdan yaxlit tizim ko‘rinishida o‘rganib, til va nutqda qo‘llanish xususiyatlarini aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o‘rta maxsus, umumta‘lim tizimida til va nutq hodisalarini farqlash, onomastik birliklar tahlili bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar o‘tish, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Ingliz tili” fanlarining onomastika, leksikologiya, semasiologiya, morfologiya, grammatika, stilistika, leksikografiya qismlari va “Onomastika”, “Matn lingvistikasi” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida xorijiy tillarni o‘rganishga tashviqni kuchaytirish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tilida eponimlarning lingvokognitiv hamda lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillarida eponimlar tizimi, ularning shakllanish omillari, ko‘pincha mifonim, antroponim va toponim asosli ekani, morfologik belgilari, leksik-semantik mohiyati, tabiatan demonimlar bilan uyg‘unligi, eponimiya va eponimizatsiyaga xos tamoyillar oid nazariy xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2017-2020 yillarda bajarilgan OT-F-1-002 – “Yoshlarda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 7-sentabrdagi № 04/2618-son ma‘lumotnomasi). Natijada

ingliz va o'zbek tillaridagi eponimlar qiyosiy aspektda o'rganilib, yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishga erishilgan.

turli tizimli ingliz va o'zbek tillaridagi eponimlarning lingvokognitiv va lingvomadaniy tabiati, ularning fanlar, sohalar, ishlab chiqarilgan yoki kashf qilingan narsa-buyumlar nomlarini bildiruvchi so'zlar sifatida nutqda qo'llanish xususiyatlari, til leksikasi va terminologiyani boyitishdagi ustivorligiga oid nazariy va amaliy materiallardan Buxoro davlat universitetida 2021-2022-yillarga bajarilgan PZ-202005236 raqamli "Oila psixologiyasi" fanidan multimedia mahsulotlarini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 7-sentabrdagi №04/2620-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek eponimlarining leksik-semantik mohiyati, til va nutqdagi o'rni, morfologik, sintaktik xususiyatlari ishlab chiqilgan;

eponimlar milliy va xalqaro turlarga bo'linishi, murakkab onomastik til birligi sifatida orfografik, derivatsion, motivatsion, funksiyalilik, semantik, omonimik xususiyatlarga egaligi, subtillarda turli metaforik imkoniyatlari va modellari, gender xususiyati, antropotsentrik omillari bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Najot bilimda", "Assalom, Buxoro" ko'rsatuvlari va "Buxoro" radiosining "Ta'limdagi muammolar" radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 21-sentabrdagi №02-09-267-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy-nazariy dalillarga boy bo'lishi taminlangan hamda adabiy ko'rsatuvlar ilmiy-ommabopligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish e'lon qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 136 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriylanishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Eponimlar – lingvistik birliklar sifatida**” deb atalgan bo‘lib, uch fasldan tarkib topgan. Bobning ilk faslida “eponim” tushunchasining terminologik mohiyati va tilshunoslikda qo‘llanishi xususida fikr yuritilgan. Tilga nisbatan antroposentrik yondashuv bugungi kun kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning muhim paradigmatlaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, onomastika nomlarni, kognitiv tilshunoslik esa til va idrok o‘rtasidagi munosabatni, jumladan, konseptni, tushunchalarni to‘g‘ri anglash va nutqda ifodalanishini namoyon etadi. Masalan, kognitiv tilshunoslik ismlarning fonetik jihatlari, lingvistik tuzilmalari talqinida madaniy va ijtimoiy omillarning ta’siri haqidagi tushunchani shakllantiradi. Demak, kognitiv tamoyillarni qo‘llash orqali onomastikada nomlardan foydalanish va talqin qilishni yaxshiroq tushunish mumkin. Har qanday til birligi so‘z yoki umuman leksik birliklarni yaratishda kognitiv jarayonlar, ma’nosi va til dinamikasini chuqurroq anglashda kognitiv tilshunoslik tamoyillariga tayaniladi. “Eponim” ham yuqorida ta’kidlangan shunday leksik birliklar qatoriga kiruvchi termin bo‘lib, bizning tadqiqotimizda ushbu birlik ikki noqardosh til doirasida chog‘ishtirma aspektda tadqiq etildi. Eponimlar kishilar nomlaridan olingan so‘z yoki terminlardir va kognitiv tamoyillar bizga ushbu terminlar va ular bilan bog‘liq ma’nomlarni tushunishga yordam beradi.

Eponim lingvistik terminlardan biri bo‘lib, (ep-uh-nim so‘zlaridan olingan) ilk bor taxminan 1833-yilda ishlatilgan.

Amerikalik olim M.Frimanning lug‘atida eponim quyidagicha ta’riflangan: “The word coined from Greek words: epi – on, upon and onama – a name (So‘z yunoncha so‘zlardan: epi – ga, ustida, va onama – ism)”.¹¹ Asli yunoncha “eponymos” so‘zidan kelib chiqqan bu birlikning tarkibiy qurilishiga e’tibor qilganda “nomlangan / nomiga atalgan” degan ma’nomlar anglashiladi.

O.S.Axmanovanning “Lingvistik terminlar lug‘ati”da “eponim” termini “har qanday shaxs nomidan xalq va joy nomlarining shakllanishi”¹², yoki Y.N.Karaulov tahriri ostida nashr etilgan lug‘atda eponym – “ism berish”¹³ deb talqin qilingan. Xuddi shu lug‘atda biz “eponimik nom” – eponim nomdan yasalgan atoqli nom terminini ham uchratamiz.

Ingliz va o‘zbek tili ko‘p miqdordagi eponimlarga ega. Eponim bu haqiqiy yoki xayoliy shaxs, yoki narsa nomiga ma’lum bir kashfiyotni, uning yaratilgan joyi yoki davrini bog‘lab ataydi. Shu tariqa shaxs o‘sha narsaning “eponimi”ga aylanadi. Biroq eponim so‘zlar astronomik kuzatuvdan zoologik taksonomiya, geografik tadqiqotlar va yadro zarrachalari fizikasigacha bo‘lgan sohalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Eponimlar umumiy so‘zlardan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi: a) semantik, ya’ni maxsus tushunchalarni belgilashi bilan; b) funksional, ya’ni birinchi navbatda professional nutq vositasi ekani bilan.

¹¹ Freeman S. M. A new dictionary of eponyms. – Oxford: Oxford University press, 1997. – P.10.

¹² Axmanova O. S. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1996. – С. 528.

¹³ Русский язык: энциклопедия / под. ред. Ю. Н. Караулова. Из-е 2-е. – Москва: Изд. Дом. Большая Российская энциклопедия, 1997. – С. 617.

Eponimlar xos nomlar (antroponimlar, toponimlar) hisobiga o'ziga xos ma'lumotlarni aks ettiradi, termin xususiyatlariga ko'ra maxsus-professional sohaga kiradi va natijada fanning maxsus-professional matnlari obyektiga aylanadi.

Eponimlar ismlar ishtirokida shakllangan terminlar bo'lib, antropotsentrik tabiatiga ko'ra, bilish jarayonlarini o'rganish nuqtai nazaridan katta qiziqish uyg'otadigan, boy semantik qatlamga ega so'zlardir.

Har qanday ilmiy sohada yangi kashfiyotlar – u qaysidir kasallik nomi bo'ladimi, geografiya, astronomiya, kimyo yoki texnikaga xos bo'ladimi, yoki bo'lmasa, o'lchov birliklari, ilmiy qonuniyatlar nomi doimiy ravishda ushbu masalalar bilan shug'ullangan olimlar sharafiga nomlanadi.

“Eponim” termini ma'lum bir shaxsning ismini anglatadigan va shu tariqa shaxs nomidan kelib chiqadigan umumiy nomni tashkil etadigan terminlarni bildiradi. Binobarin, barcha eponimlar iste'molga kirganda “neologizmlar” – yangi yaratilgan so'z sifatida qabul qilinadi.

Eponim va demonim terminlarini ajratish, odatda, faqat tilshunoslik uchun muhimday ko'rinadi. Ular bir-biriga nisbatan xuddi “sinonim”day, ya'ni yozilishi har xil, ammo ma'nosi bir xil bo'lgan ma'nodosh so'zlar sifatida ham qaraladi. Biroq bu terminlar ikki xil – biri ism, ikkinchisi xalqni ifodalab keladi. Eponim nomi inson nomi bilan atalgan narsa, joy yoki ixtiro bo'lsa, demonim odamlarni ma'lum bir joy yoki hududga tegishliligini tasvirlash uchun ishlatiladigan so'zdir. Ular ikkalasi ham nomlarni o'z ichiga olgan ma'noda bog'liq, ammo ular turli xil tushunchalarni ifodalaydi. Shuning uchun ularni tilda o'zaro ajratib, farqlab ishlatish samarali va ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, “Amerika” so'zining kelib chiqishiga nazar solsak, ikkala termin o'rtasidagi farqni aniq ko'rsatib berish mumkin bo'ladi. Bu so'z Amerigo Vespuchchi ismli savdogar va kashfiyotchi nomi bilan bog'liq. 1492-yilda Kolomb Yangi Dunyoni kashf etdi, ammo Amerigo uning yangi qit'a ekanligini qayd qildi. Shuning uchun qit'aga uning nomi berilgan. Shu tariqa Amerigo nomi eponimga aylangan. Keyinchalik undan boshqa o'zakdosh yasama so'zlar – amerikalik, amerikaliklar kabilarning barchasi “demonim” sifatida paydo bo'lgan.

Yana bir misol: “O'zbekiston”– o'zbek etnonimidan kelib chiqqan. Etonimning tarixi bo'yicha turli xil manbalr mavjud bo'lib, jumladan, tarixchi Rashiduddin Fazlulloh ibn Imomuddavla Abulxayr Hamadoniy Ildegiziylar sulolasining so'nggi vakili, Tabriz hukmdori O'zbek Muzaffar (1210-1225) bo'lgan¹⁴ deb yozgan. O'zbek adibi Xurshid Davron o'zbek etnonimi to'g'risida bir qancha ma'lumotlarni “O'zbek” termini (etnonimi)ning kelib chiqishi bilan bog'liq bir faraz haqida”¹⁵ maqolasida yoritib bergan. Ushbu toponimik eponim *o'zbekistonlik, o'zbekistonliklar* ko'rinishidagi demonimga ega.

O'zbek tilida ham kishilarning nomiga borib taqaladigan son-sanoqsiz eponim terminlar uchraydi. Qoidaga ko'ra, umumiy ism kishining nomidan kelib chiqqan bo'lsa, “eponim” sanaladi. Ko'pincha bunda o'sha kishi tegishli obyektini

¹⁴ Rashid ad-din. Sbornik letopisey. – T.1., kn.1. M., 1952

¹⁵ <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/ozbek-atamasi-haqida.html>.

kashf qilishda, ixtiro etishda asosiy shaxs sifatida bevosita qatnashgan bo'lishi lozim. Shundagina yaratilgan kashfiyot uning nomi, ismi bilan ataladi.

Birinchi bobning ikkinchi faslida "eponim"larning onima turi sifatidagi ontologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Eponimlar onimalarning bir turi bo'lgani uchun bevosita onomastikaning asosiy tadqiqot obyektlari sirasiga kiradi. Eponimlar turli maxsus sohalarda qo'llaniladigan onomastik terminlardir. Shu sababli onomastika fanining rivojlanishini ta'minlashda eponimlar haqidagi bilimlarning alohida o'rni bor.

Hozirgi kunda ko'pchilik tillarning onimik makoni xususiyatlarini o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Xususan, ularni qiyosiy o'rganish asosida dunyo xalqlari tillarida qo'llanib kelayotgan onomastik universalialar haqidagi mavjud g'oyalarni oydinlashtirish va ularni yangilari bilan to'ldirish mumkin.

Hozirgi vaqtda fanlar tizimida terminologiyaning o'rni haqida gap borar ekan, eponimlar ham nazardan chetda emas. Ularga to'rt tomonlama e'tibor berib kelinmoqda:

birinchidan, eponimlar leksikologiya tarkibidagi onomastika bo'limining bir qismini tashkil qiladi;

ikkinchidan, eponimlar barcha xalqlar tilida mavjud;

uchinchidan, eponimlarni o'rganuvchi eponimiya bo'limi terminologiya, onomastika fanlarini o'zaro bog'lovchi, o'ziga xos o'rganish predmeti va usullariga ega bo'lgan alohida bo'lim sifatida qaraladi;

to'rtinchidan, eponimiya fanlararo tushunchalarni o'zida mujassamlantirib keladi. Shuning uchun unda juda ko'plab (semantika, mantiq, leksikografiya, matematika, informatika, fizika, ximiya, meditsina, sotsiologiya kabi bir qator) fanlardan nazariyalar va usullar o'zlashtirilgani kuzatiladi. Bu esa uning "integratsion" tabiatga ham egaligidan darak beradi.

Eponim murakkab onomastik til birligi bo'lganligi sababli u bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

I. Imlo xususiyatlari. 1. Ko'p hollarda eponimlar bosh harf bilan yoziladi, chunki ular komponent sifatida atoqli nomlarga ega. Masalan, *Galiley teleskopi* Galileyo Galiley sharafiga nomlangan. Lekin metonimizatsiyada, ya'ni assotsiatsiya jarayonida eponimlar kichik harf bilan yoziladi. Metonimizatsiya jarayonida eponimlar oddiy so'zlashuvda oddiy so'zlar sifatida qo'llanilishi, ularning nomlari unutilishi mumkin. Masalan, *colossal* (Kolossal Rodos), *mazoxist* (Leopold fon Masoch), *mavzoley* (qadimgi Fors imperiyasidagi Provinsiya gubernatori Mavsol nomidan kelib chiqqan) va boshqalar.

Bu, bir tomondan, ushbu nomlarning xususiyatlari bo'lsa, ammo ayni paytda muammolari ham, chunki bunda eponim tarkibidan o'rin olgan antroponim – kishining ismi e'tiborga olinmaydi. Metonimik jarayonda eponimlar kichik harf bilan yozilishi kerak. Biroq tovar belgilari bosh harflar bilan yozilishi lozim.

2. Bosh va kichik harfli eponimlarning yozilishi milliy madaniyat va qo'lyozmalar qoidalariga bog'liq. Ingliz tilidagi ko'plab nashrlarda matnlar, sarlavhalar, aksariyat terminlar, jumladan, eponimlar bosh harf bilan yozilgan.

II. So‘z yasash xususiyatlari. Eponimlardan foydalanishning yana bir sababi ularning qisqalik kuchidir. Eponimlar ixcham, so‘z va vaqtni tejaydi, so‘zni buzmaydi. Misol uchun, *Alsgeymer kasalligi* – bu oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan tibbiyot sohasidagi shaxs tomonidan tushuniladigan termin. Buning o‘rniga, “inson miyasining shikastlanishi, insonning qarishi” deyish inson energiyasi va vaqtini ko‘proq oladi. Demak, eponimlarning tilda qo‘llanishi nutqiy tejamkorlikka olib keladi.

III. Eponimlarning milliy va xalqaro xususiyatlari. 1. Eponimlar milliy va xalqaro turlarga bo‘linadi. Ular, ko‘pincha bir xil tovushlar bilan bir xil talaffuz qilinadi. Ko‘pgina mamlakatlarda xalqaro eponimlar bir xil o‘qiladi va yoziladi.

2. Muayyan xalq va millat uchun ahamiyatli, ma‘lum bir toponimlarning madaniy-tarixiy ahamiyatini ko‘rsatuvchi, omma ongida saqlanib qolgan eponimlar mavjud. Misol uchun, *Bork* eponimi nominatsiyasi ko‘plab Amerika davriy nashrlarida uchraydi. Bu eponimning mohiyati shundan iboratki, AQShning qirqinchi prezidenti Robert Borkning Oliy sud sudyasi lavozimiga nomzod sifatida ko‘rsatilganda, Senat (asosan, demokratlar) uning nomzodini bir necha bor rad etgan, hatto OAV uni salbiy reklama qilgan. Bu eponim tufayli birovning biron-bir mansabni egallashiga yo‘l qo‘ymaslik/to‘sqinlik qilish degan ma‘noni anglatuvchi *bork*, ya‘ni, boshqa bir so‘z, fe‘l paydo bo‘ldi.

IV. Eponimlarning motivatsion xususiyatlari. Eponimlarning motivatsion tasnifi, ularning assotsiativ yoki neytral ekanligi haqida ko‘p bahs-munozaralar mavjud. Bizningcha, eponimlar neytral emas, ular assotsiativdir.

V. Eponimlarning filial funksiyaga egaligi xususiyati. Eponimlar xalqaro miqyosda tan olinishi yoki tan olinmasligi mumkin. Umumiy terminlar umumiy ilmiy, intizomiy, fanlararo va yuqori ixtisoslashgan terminlarga bo‘linadi. Umumiy ilmiy terminlar ko‘plab kommunikatorlar tomonidan keng va ma‘lum ko‘rinishda tushuniladi.

Sanoat, fanlararo terminlar ko‘p ishlatiladigan terminlarga qaraganda kamroq mashhur, ammo odamlar ularni tushunishga qodir.

VI. Eponimlarning semantik xususiyatlari. Ba‘zi bir so‘z eponimlarda (tub eponimlarda) omonimlarga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, *Atlas*: 1) Atlas – geografik, biologik, dialektologik xaritalarning umumiy nomi (yer sharini yaratgan afsonaviy Liviya shohi Atlas nomi bilan atalgan). 2) bir tomoni yaltiroq ipak mato. Bu farqlovchi xususiyatlar boshqa terminlarga nisbatan eponimlarning o‘ziga xos xususiyatini ifodalaydi.

Birinchi bobning uchinchi faslida eponimik birliklarning shakllanish omillari o‘rganilgan. Eponimlarning struktur formatsiyasi va lisoniy-semantik tabiati nazardan o‘tkazilsa, ularning antroponim, toponim va mifonim asosli turlari mavjudligi ayonlashadi. Shulardan antroponim, toponim asosli eponimik terminlar birliklari soni jihatidan salmoqli ekani ko‘rinadi. Negaki, bugungi kunda jamiyatimizda lingvistik tushunchalar va terminlarning soni va xilma-xilligi nihoyatda o‘sib bormoqda. Ayniqsa, shaxs nomlaridan kelib chiqqan eponimlar mohiyatiga e‘tibor berilsa, ularning real yoki xayoliy shaxs, biror narsa yoki predmet nomi bilan bog‘lanishi, muayyan bir kashfiyotning kimgadir aloqadorligi, uning kashf etilgan joyi, davriga bog‘lab nomlangani oydinlashadi. Shu tariqa

shaxs o'sha narsaning "eponimi"ga aylanadi. Antroponim asosli eponimlar deganda, o'z tarkibida tegishli obyektlar, hodisalar mualliflari ko'rsatilgan yoki taniqli fan va madaniyat arboblari sharafiga atalgan antroponimlar asosida shakllangan eponimlar tushuniladi. O'z o'rnida ular termin sifatida ishlatiladi.

R. Trahayr o'z qarashlarida eponimlarni shaxs nomidan kelib chiqqan so'zlar ekanligi va bunda shaxs hayot yoki vafot etgan, qahramon yoki xayoliy to'qima xarakter bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. Olim ta'rifiga yana ba'zi bir qo'shimchalarni kiritadi: "Ijtimoiy fanlarda ko'plab eponimga xos hodisalar kishilarning emas, balki muhim joylarning nomlari bilan bog'liq".¹⁶ Shu sababli eponimlar nafaqat antroponimlardan, balki toponimlardan ham kelib chiqqani ushbu ta'rifda o'z aksini namoyon qilmoqda. Quyidagi misolda buning yaqqol isbotini ko'rishimiz mumkin: *Panama hat* – comes from Panama in Central America, where it was first sold.¹⁷

Keltirigan misoldan ko'rinadiki, ijtimoiy hayotda qo'llaniladigan eponim so'zlar va tushunchalar tabiati, ma'no xususiyatiga ko'ra joy nomlariga ham borib taqaladi. Masalan, *panama shlyapasi* aynan shu nom bilan atalishi uning ilk bor Panamada sotilganligi bilan bog'liq.

Eponimlarning shakllanishi bo'yicha olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagilar aniqlandi: 1. Eponimlar shakllanishi bo'yicha mifonimlarning salmog'i juda kam (tahlilga tortilgan qariyb bir yarim ming eponim so'zning yuztasi mifonim asosli. Masalan, *Achilles' heel*, *Amor*, *Atlas* kabi). 2. Eponimlar kimnidir xotirlash va sharaflash xususiyatiga ega. Ular birovning ismini abadiylashtirish uchun ham qo'llanadi. Eponimlar ko'pincha sport, tibbiyot, adabiyot, siyosat, iqtisod kabi sohalarning rivoji uchun faoliyat ko'rsatgan odamlar nomini mashhurlashtirish, abadiylashtirish uchun shakllantirilgan. 3. Eponimlar atalgan nomi bilan bevosita aloqador bo'ladi. Masalan: *Kolt revolver* eponimi amerikalik ixtirochi, sanoatchi va ishbilarmon Semyut Kolt nomi bilan bog'liq. U o'z davrida Amerikada "Patent Fire-Arms Manufacturing Company" kompaniyasini tashkil etgan va revolverlarning seriyali ishlab chiqarilishini tijoratlashtirgan. 4. Ammo eponimlar orasida ixtirochisi nomi bilan aloqasi bo'lmagan, shaxs nomlariga bog'lanmaydigan eponim turlari ham mavjud. Masalan, "*Eynshteyniy*" – kimyoviy unsur nomi bo'lib, olim Eynshteyn sharafiga qo'yilgan. 5. Eponimlarning nutqda talaffuziga ko'ra, baynalmilal (internatsional) xususiyatli ko'rinishlari ham mavjud. Misol tariqasida nikotin va sendvich so'zlariga e'tiborimizni qaratsak. Ushbu eponim so'zlar dunyoning ko'pchilik davlatlari tillarida deyarli bir xil talaffuz qilinishi kuzatiladi. 5. Eponimlar grafik xususiyatiga ko'ra bosh harf va kichik harflar bilan yoziladi, ayniqsa, metonimik jarayonli eponimlar. Bunda eponimlar tilga olinganda aksar holatlarda so'zning narsa yoki mahsulot bilan aloqadorligiga e'tibor qaratib, u bilan bog'liq shaxs nomi nazardan chetga surilishi ham mumkin. Masalan: *dizel* – germaniyalik ixtirochi Rudolf Kristian Karl Dizel nomiga, *kardigan* – Kardigan grafi nomiga, *nikotin* – Jan Nikot de Vilmeyn nomiga qo'yilgan.

¹⁶ Trahair R. What's in a name? – New York: Oxford university press, 1990. – P. 17

¹⁷ Таржима ўзимизники.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek tillarida eponimlar mavzuiy tasnifi va lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan iborat. Fasllarda eponim-terminlar nominatsiya xarakteriga ko‘ra fanda, texnikada va kundalik turmushdagi atoqli terminlar, mulkiy eponimlar, shuningdek, madaniy aspektda determinatsiyalangan tipik xarakterga ega ma’lumotlarni namoyon etishi bilan internatsional, lingvomadaniy, milliy xususiyatli, tarixiy-madaniy, madaniy-ijtimoiy eponimlarga bo‘linishi hamda eponim birliklar qo‘llanilishi turli tillar va madaniyatlarda farqlanishi tahlil qilingan.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan lug‘atlar tarkibidagi eponimlar aviatsiya, astronomiya, biologiya, botanika, geologiya, kimyo, matematika, tilshunoslik, fizika, yurisprudensiya kabi fanlarinig rivojiga o‘zining ilmiy yangiliklari bilan hissa qo‘shgan olimlarning nomlari bilan bog‘liqdir. Eponimlar ilm-fanda olimlar va ixtirochilar ko‘pincha o‘lchov birliklari yoki ilmiy jarayonlar, usullarni ko‘rsatib, ba’zilar kundalik turmushda ishlatilib kelinmoqda. Tom ma’noda, uy-ro‘zg‘orga oid kundalik iste’moldagi so‘zlar qatoriga kiritilgan va kichik harflar bilan berilishiga odatlanilgan.

Ensiklopediya va lug‘atlarni tadqiq qilganda, eponimlarning iste’molga ko‘ra quyidagi mavzuiy turlari mavjudligi muallif tomonidan aniqlangan.

1. Ilm-fan va texnika sohasiga oid eponimlar.

Texnikaga oid termin-eponimlar tarkibiga kiradigan eponimlar moddiy voqelikning aniq obyektlari yoki jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular 23 guruhga bo‘lib tahlil qilindi. Jumladan, apparat, tarozi, termometr, o‘lchagichlar, avtomobil, dvigatel, raketa, avtomat qurol nomlari: *Gatso speed camera – Gatso kamerasi; Cavendish torsion balance – Kavendish torsion balanssi. Fahrenheit-termometr – Farengeyt shkalali thermometer; McLeod gauge – siqish bosimini o‘lchagich (vakuum o‘lchagich) McLeod; Toyota, Ford – avtomobil markasi; dizel – ichki yonish dvigateli; Stokes – inglizlarning ikki oyoqli yengil zambaragi.*

O‘rganilayotgan guruhda atoqli nomlarning umumiy otlarga o‘tishi berilgan nomning bir qator bir xil obyektlarga taqsimlanishi, ya’ni umumlashtirish orqali sodir bo‘ladi.

Ilm-fan va texnika sohasida, bundan tashqari, kundalik turmushda qo‘llaniladigan eponim birliklar terminning ilmiy konsepti sifatida quyidagi shartlarni o‘zida mujassmlashtiradi:

1. Tarkibi atoqli yoki turdosh otdan iborat.
2. Atoqli otning affiksial bo‘lmagan yo‘l bilan metonimik ko‘chish natijasi.
3. Atoqli otning affiksial hosilasi.

Ko‘rinib turibdiki, atoqli nomlar, ya’ni kishi, joy yoki narsa nomi umumiy obyektlar, tushunchalar yoki sifatlarni tavsiflash uchun ishlatiladi va bunday so‘zlar ba’zan katta va ba’zan kichik harflar bilan yozilgan eponimlarni o‘z ichiga oladi. Eponimlar, odatda, kishi ismidan, joy nomi, afsonaviy nomlardan kelib chiqqan bo‘lib, so‘zlarga, ismning manbai bo‘lgan yoki boshqa biror narsa nomining manbai deb hisoblangan atoqli otga ishora qiladi.

2. Tibbiyot sohasiga doir eponimlar. Eponim birliklarning ushbu turi jahonda tibbiyot rivojlanishi bilan paydo bo‘lib, ushbu soha terminologik tizimining muhim

qismiga aylangan va asosan, qo'shma so'zlar, terminologik iboralardan iborat hamda ularning so'z yasash modellari har xil.

O'z navbatida, tibbiyotga xos bo'lgan eponimlar kasallik belgilari, muolaja, tibbiy asbob-uskunalarini kabilarni ko'rsatuvchi eponim birliklardan iborat:

Aaron sign – amerikalik gastroenterolog Charlz Detti Aaron sharafiga nomlangan bo'lib, appenditsitda qattiq bosim ostida yurak yoki oshqozon hududida og'riq yoki bezovtalik hissi holatini ifodalab keladi. Bundan tashqari *Basedow disease*, *Alzheimer disease*, *Munchausen syndrome*, *Othello syndrome* kabi kasallik nomlari mavjud. Yana bir misol, tibbiyotda *Heimlich maneuver*¹⁸ termini bilan ma'lum davolash usuliga e'tibor qaratamiz. Insonning yuqori nafas olish yo'llarida tiqilib qolgan yot jismni chiqarib yuborish uchun yuqori qorin diafragmasini qisish yo'li orqali amalga oshiriladigan birinchi yordam usuli bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida amerikalik yahudiy ko'krak qafasi(torakal) jarrohi va tibbiyot tadqiqotchisi Genri Xeymlich tomonidan taklif qilingan.

